

**AVTOTRANSPORT LOGISTIKA XIZMATLARIDA SHARTNOMA
ERKINLIGI VA UNING CHEGARALARI: ADOLATLI MUVOZANAT
KONSEPSIYASI**

Eshonqulov Azimjon Azamatovich

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti o'qituvchisi

E-mail: azimkhon.uz@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisdav avtotransport logistika xizmatlarida shartnoma erkinligi tamoyili va uning huquqiy chegaralari tadqiq etiladi. Tadqiqotda tipik (adhesion) shartnomalar, javobgarlikni cheklovchi bandlar hamda halollik va oqilonalik prinsiplari tahlil qilingan. Ilmiy yangilik sifatida logistika shartnomalarida “adolatli muvozanat” konsepsiyasi ilgari suriladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, UNIDROIT printsiplari, PECL, AQSh va Yevropa Ittifoqi qonunchiligi qiyosiy o'rganilgan.

Kalit so'zlar: shartnoma erkinligi, adhesion shartnomalar, halollik tamoyili, oqilonalik, adolatli muvozanat, logistika huquqi, UNIDROIT, PECL.

Kirish. Zamonaviy jahon iqtisodiyotida avtotransport logistika xizmatlari muhim o'rin tutadi. Tovarlarni yetkazib berish, saqlash, jo'natish va shunga oid xizmatlarni tartibga soluvchi shartnomaviy munosabatlar murakkab huquqiy mexanizmni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1-moddasida shartnoma erkinligi fuqarolik qonunchiligining asosiy negizlaridan biri sifatida mustahkamlangan bo'lib, u fuqarolik munosabatlari ishtirokchilarining tengligini e'tirof etishga asoslanadi. Biroq logistika sohasida shartnomaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyati mavjud: ko'pincha yirik kompaniyalar tomonidan standart shakldagi (tipik) shartnomalar qo'llaniladi. Bunday shartnomalar ikkinchi tomonga shartlarni muhokama qilish imkoniyatini bermaydi,

bu esa tomonlar o'rtasida nomutanosiblikni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, shartnoma erkinligi va uning chegaralari masalasi logistika huquqida alohida dolzarblik kasb etadi. Tadqiqotning maqsadi avtotransport logistika xizmatlarida shartnoma erkinligi tamoyili va uning huquqiy chegaralarini chuqur tahlil qilish, xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, avtotransport logistika shartnomalarida erkinlik tamoyili uchta asosiy yo'nalishda chegaralanishi lozim:

Birinchidan, standart shakldagi, ya'ni tipik (adhesion) shartnomalar nazorati. Adhesion shartnomalar – standart shakldagi, ko'pincha bir taraf tomonidan tayyorlangan va ikkinchi tomonga "qabul qil yoki rad et" shaklida taqdim etiladigan shartnomalardir. Cornell yuridik ma'lumotlar instituti tahlillariga ko'ra, bunday shartnomalar tomonlarning kelishuv kuchi nomutanosib bo'lgan holatda tuziladi va zaif tomon shartlarni muhokama qilish imkoniyatiga ega emas.

UNIDROIT prinsiplarining 1.7-moddasi har bir tomon xalqaro savdoda halollik va adolatli muomala (good faith and fair dealing) tamoyiliga muvofiq harakat qilishi shartligini belgilaydi. Yevropa Ittifoqi Direktivasi (93/13/EEC) esa alohida muhokama qilinmagan shartnoma sharti, agar u halollik talablariga zid ravishda tomonlar huquq va majburiyatlarida sezilarli nomutanosiblikni keltirib chiqarsa, noadolat deb topilishini nazarda tutadi. AQSH huquqida "unconscionability" (nohaqlik) doktrinasini qo'llaniladi. Bu doktrina ikki elementni o'z ichiga oladi: protsessual nohaqlik (shartnoma tuzish jarayonidagi nomutanosiblik) va moddiy nohaqlik (shartnoma shartlarining haddan tashqari bir

tomonlamaligi, adolatsiz yoki nohaqligi). Yagona tijorat kodeksining (UCC) 2-302-moddasi sudga bunday shartlarni bekor qilish yoki cheklash huquqini beradi.

Ikkinchidan, javobgarlikni cheklovchi bandlarni tartibga solish.

Logistika shartnomalarida javobgarlikni cheklash bandlari keng qo'llaniladi: tovar yo'qotilishi, kechiktirilishi yoki shikastlanishi uchun maksimal tovon puli miqdori, da'vo qilish muddatlari, fors-major (force-majeure) holatlari va boshqalar. Yevropa transport hisobotiga ko'ra, multimodal transport shartnomalarida tomonlar javobgarlikni o'zaro kelishuv asosida belgilashi mumkin, biroq bu erkinlik qonun normalari bilan cheklanadi. Buyuk Britaniya tajribasi (Unfair Contract Terms Act 1977) shuni ko'rsatadiki, qonundan kelib chiqadigan javobgarlikni istisno qiluvchi yoki cheklovchi shartnoma sharti faqat "oqilona" (reasonable) bo'lgan taqdirdagina kuchga ega bo'ladi. Beparvolik natijasida yetkazilgan o'lim yoki shaxsiy jarohat uchun javobgarlikni cheklash esa umuman taqiqlanadi. AQSH tarixiy sud amaliyotida (Railroad Company v. Pollard, 1874) ham tashuvchi javobgarligini cheklash chegaralari belgilangan.

Uchinchidan, halollik va oqilonalik tamoyillarini qo'llash. Halollik tamoyili shartnomaviy munosabatlarda tomonlarning bir-biriga nisbatan shaffof, samimiy va adolatli munosabatda bo'lishini talab qiladi. UNIDROIT prinsiplarining 1.7-moddasiga ko'ra, tomonlar bu majburiyatni istisno qilish yoki cheklash huquqiga ega emaslar – bu imperativ norma hisoblanadi. Germaniya Fuqarolik kodeksining 242-paragrafi (Treu und Glauben) halollik va vijdonlilik tamoyilini belgilaydi. Niderlandiya yangi Fuqarolik kodeksi ham oqilonalik va adolatlilik (redelijkheid en billijkheid) tamoyiliga alohida e'tibor qaratadi. UNIDROIT prinsiplarining 4.8-moddasi shartnomaning o'tkazib yuborilgan

shartini to'ldirish uchun tomonlar niyati, shartnoma mohiyati, halollik va oqilonalikni hisobga olishni talab qiladi.

Ilmiy yangilik. Tadqiqotda “adolatli muvozanat” konsepsiyasi ilgari suriladi. Bu konsepsiya – shartnomada tomonlarning iqtisodiy kuchi va shartlarni belgilash imkoniyati farqlarini inobatga olgan holda, shartnoma erkinligi va adolat prinsiplarini uyg'unlashtiradigan nazariy yondashuvdir.

Konsepsiya uchta asosiy elementni o'z ichiga oladi. Birinchisi – tomonlar o'rtasidagi iqtisodiy muvozanatni tan olish. Logistika shartnomalarida ko'pincha yirik kompaniyalar va kichik xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida shartnomalar tuziladi, katta kompaniyalarning iqtisodiy ustunligi nomutanosiblikni keltirib chiqaradi. Ikkinchisi – shartnoma erkinligi chegaralarini belgilash. Shartnoma erkinligi mutlaq bo'lishi mumkin emas, u halollik, oqilonalik va jamoat manfaatlari bilan chegaralanishi lozim. Uchinchisi – himoya mexanizmlarini yaratish: adolatsiz shartlarni bekor qilish, shartnomani qayta ko'rib chiqish yoki tovon pulini belgilash shaklidagi huquqiy vositalar zarur.

Xulosa va takliflar. Avtotransport logistika xizmatlarida shartnoma erkinligi tamoyili iqtisodiy va huquqiy muvozanatni ta'minlash uchun zarur bo'lsa-da, biroq bunday erkinlik cheksiz bo'lishi mumkin emas. Standart shakldagi, ya'ni tipik (adhesion) shartnomalar, javobgarlikni cheklovchi bandlar va erkinlikning suiiste'mol qilinishi halollik, oqilonalik va adolatli muvozanat konsepsiyasi bilan chegaralanishi lozim. Xalqaro tajriba – yuqoridagi UNIDROIT, PECL (Principles of European Contract Law), Yevropa Ittifoqi direktivalari va anglosakson huquq tizimi – shartnoma erkinligini halollik va adolat tamoyillari bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga quyidagi

o'zgartirishlar kiritish tavsiya etiladi: adhesion shartnomalar institutini huquqiy jihatdan tartibga solish; adolatsiz shartnoma shartlarini bekor qilish asoslarini aniq belgilash; logistika sohasida zaif tomonlarni himoya qilish mexanizmlarini yaratish; halollik va oqilonalik tamoyillarini qonuniy mustahkamlash. Taklif etilayotgan "adolatli muvozanat" konsepsiyasi huquqiy shaffoflik, biznes raqobatbardoshligi va tomonlar o'rtasida adolatli munosabatlarni ta'minlash uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995-1996). // lex.uz.
2. UNIDROIT Principles of International Commercial Contracts 2016. Rome: UNIDROIT.
3. Council Directive 93/13/EEC on unfair terms in consumer contracts. // eur-lex.europa.eu.
4. Farnsworth E.A. Duties of Good Faith and Fair Dealing under the UNIDROIT Principles. Tulane Journal of International and Comparative Law, 1995.
5. Unfair Contract Terms Act 1977 (United Kingdom).